



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 2/3



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-2/3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Boymurodov Botir Panji o'g'li NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI TASNIFI.....	5
2. Khurramova Adolat Bakhodir kizi EXPERIMENTAL LEGAL REGIMES IN THE DIGITALIZATION OF LAW.....	13
3. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XORIJIIY MAMLAKATLARDA ISLOM MOLIYA HUQUQIGA DOIR QONUNCHILIK EVOLUTSIYASI.....	18
4. Абдуллаев Джамшид Джамилович МЕДИЦИНСКАЯ ПОМОЩЬ И МЕДИЦИНСКИЕ УСЛУГИ: ПРАВОВЫЕ РАЗЛИЧИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ.....	25
5. Алимарданова Ирода Воҳид қизи ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ МАҚСАДЛАР УЧУН АСАРЛАРДАН ЭРКИН ФОЙДАЛАНИШ.....	32
6. Зокиров Шерзод Илхом ўғли ПРОКУРОР – МУХТАСИБНИНГ ПРОТОТИПИ СИФАТИДА (ФУҚАРОЛАР МУРОЖААТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ МИСОЛИДА).....	39
7. Abzalova Khurshida Mirziyatovna TIME OF COMMITTING A CRIME AND THE RETROACTIVE EFFECT OF THE LAW IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	47
8. Ҳамидов Нурмуҳаммад Ориф ўғли АЙРИМ МАСАБДОРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ ОБЪЕКТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	53
9. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich BA'ZI XORIJIIY MAMLAKATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA RETSIDIV JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	60
10. Shamsidinov Zayniddin Ziyovidinovich CRIMINAL AND LEGAL CHARACTERISTICS OF RECEIVING A BRIBE IN FOREIGN LEGISLATION.....	72
11. Суннатов Воҳид Тошмуродович МАНСАБ СОХТАКОРЛИГИ ЖИНОЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	79
12. Баракайев Лазизжон Отақулович ИҚТИСОДИЙ ЭКСПЕРТИЗАЛАРНИ ТАЙИНЛАШ ВА ЎТКАЗИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ.....	86



Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich,
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
E-mail: m.qurbonov@gmail.com

BA'ZI XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA RETSIDIV JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

For citation: Kurbanov Marufjon Mamadaminovich. PECULIARITIES OF LIABILITY FOR RECIDIVISM IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF SOME FOREIGN COUNTRIES. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 2/3, pp. 60-71

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14950670>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif ba'zi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida retsdiv jinoyatlar uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgan. Muallifning qayd etishicha retsdiv jinoyatlar muammosi g'oyat murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning tushunchasi turli yo'nalishdagi fan vakillari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Darhaqiqat, "retsdiv" so'zi lotincha (recidivus)dan olingan bo'lib, "qaytalovchi", "yangilanuvchi" degan ma'noni bildiradi. U bir qancha jinoyat sodir etishning xavfliroq shakli hisoblanadi. Jinoyat qonuni retsdiv jinoyatlar sifatida shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishini tan oladi (JK 34-moddasi birinchi qismi.). O'sha holat, ya'ni shaxs sudlangandan keyin ham yangidan jinoyat sodir etsa, bu uning yuqori darajada ijtimoiy xavfliligidan darak beradi. Qonunda bu hisobga olinadi va Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalarida retsdivning alohida turlari javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutiladi. Takroran jinoyat sodir etish mahkumning shaxsini tavsiflash uchun ham muhim, shuningdek tarbiyaviy ishlarini tashkil etishda hisobga olinadi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida retsdiv jinoyat tushunchasining berilganligi va bu turkumdagi jinoyatlarni aniq tasniflanganligi jinoyat huquqida ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, qonunchilik normalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar o'rtasida retsdiv jinoyatchilikning kelib chiqishiga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha umumiy va maxsus vakolatli sub'ektlar faoliyati hamda mazkur faoliyatni tartibga soluvchi qonun normalaridagi mavjud muammolar, sudlanganlik holatini davomiyligiga ta'sir qiluvchi jazo turlari va miqdori voyaga yetmaganlarga nisbatan yengillashtirilgan ko'rinishga ega bo'lsada, ularga nisbatan faqat umumiy jazo muddatlaridan yengilroq jazo tayinlash bilan cheklanilganligi, sudlanganlik muddatlarini qo'llashning alohida tartibi hanuzgacha belgilanmaganligi, shuningdek, ayrim MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar retsdivi va ularga nisbatan sudlanganlik institutini qo'llash bilan bog'liq normalarni tahlil qilish jinoyat qonunchiligimizda retsdiv va sudlanganlik bilan bog'liq qonun normalarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar retsdivi va ularga nisbatan sudlanganlik muddatlarini qo'llashning alohida tartibini muayyan huquqiy normada aks ettirishni taqozo etadi.

Kalit soʻzlar: retsivid, sudlanganlik, javobgarlikni ogʻirlashtiruvchi holat, voyaga yetmaganlar retsivivi.

Курбанов Маъруфжон Мамадаминович,
 Доктор философии по юридическим наукам (PhD)
 E-mail: m.qurbonov@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА РЕЦИДИВНЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье автор освещает особенности ответственности за рецидивные преступления в уголовном законодательстве некоторых зарубежных государств. По мнению автора, проблема рецидива преступлений представляет собой чрезвычайно сложное и многогранное явление, концепция которого интерпретируется по-разному представителями различных научных дисциплин. Действительно, термин «рецидив» происходит от латинского слова *recidivus*, означающего «повторяющийся», «возобновляющийся». Он представляет собой более опасную форму совершения преступлений. Уголовный закон признает рецидивом преступлений умышленное совершение нового преступления лицом, ранее осужденным за умышленное преступление (ч. 1 ст. 34 УК). Этот факт, а именно повторное совершение преступления после осуждения, свидетельствует о высокой степени общественной опасности лица. Данный аспект учитывается в законе, и в статьях Особенной части Уголовного кодекса отдельные виды рецидива предусмотрены в качестве обстоятельств, отягчающих ответственность. Совершение преступления повторно имеет важное значение как для характеристики личности осужденного, так и для организации воспитательных мероприятий. В Уголовном кодексе Республики Узбекистан, принятом 22 сентября 1994 года, было дано определение рецидива преступлений и осуществлена четкая классификация преступлений данной категории, что имеет как теоретическое, так и практическое значение для уголовного права. Кроме того, исследование норм законодательства показывает, что в отношении несовершеннолетних борьба с рецидивной преступностью и ее предупреждение возложены на общие и специальные уполномоченные субъекты. Однако анализ норм, регулирующих данную деятельность, выявляет ряд проблем, связанных с продолжительностью состояния судимости, видами и размерами наказаний, которые, несмотря на их смягченный характер в отношении несовершеннолетних, ограничиваются лишь назначением наказаний ниже общих сроков. В то же время особый порядок применения сроков судимости для несовершеннолетних до сих пор не установлен. Анализ норм некоторых стран СНГ, регулирующих институт рецидива несовершеннолетних и их судимости, указывает на необходимость совершенствования уголовного законодательства в части регулирования рецидива и судимости. Это, в свою очередь, требует закрепления в конкретной правовой норме особого порядка применения сроков судимости для несовершеннолетних, совершивших преступление повторно.

Ключевые слова: рецидив, судимость, обстоятельство, отягчающее ответственность, рецидив несовершеннолетних.

Kurbanov Maruffjon Mamadaminovich,
 Doctor of Philosophy (PhD) in Law
 E-mail: m.qurbonov@gmail.com

PECULIARITIES OF LIABILITY FOR RECIDIVISM IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF SOME FOREIGN COUNTRIES

ANNOTATION

In this article, the author highlights the specifics of liability for recidivism in the criminal legislation of some foreign countries. According to the author, the problem of recidivism is an extremely complex and multifaceted phenomenon, the concept of which is interpreted in different ways by representatives of various scientific disciplines. Indeed, the term "relapse" comes from the Latin word *recidivus*, meaning "recurring", "resuming". It represents a more dangerous form of crime. The Criminal Law recognizes as a recidivism the intentional commission of a new crime by a person previously convicted of an intentional crime (Part 1 of Article 34 of the Criminal Code). This fact, namely the repeated commission of a crime after conviction, indicates a high degree of public danger to a person. This aspect is taken into account in the law, and in the articles of the Special Part of the Criminal Code, certain types of recidivism are provided for as aggravating circumstances. The commission of a crime repeatedly is important both for the characterization of the convict's personality and for the organization of educational activities. The Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, adopted on September 22, 1994, defined recidivism and clearly classified crimes in this category, which has both theoretical and practical implications for criminal law. In addition, a study of the legislation shows that in relation to minors, the fight against recidivism and its prevention are entrusted to general and special authorized entities. However, an analysis of the norms governing this activity reveals a number of problems related to the duration of criminal records, types and amounts of punishments, which, despite their mitigated nature in relation to minors, are limited only to the imposition of punishments below the general terms. At the same time, a special procedure for applying the terms of a criminal record for minors has not yet been established. An analysis of the norms of some CIS countries regulating the institution of juvenile recidivism and their criminal record indicates the need to improve criminal legislation in terms of regulating recidivism and criminal records. This, in turn, requires fixing in a specific legal norm a special procedure for applying the terms of criminal record for minors who have committed a crime repeatedly.

Keywords: recidivism, criminal record, aggravating circumstances, juvenile recidivism.

Retsidiv jinoyatlar masalasi juda murakkab va ko'p qirrali huquqiy fenomen bo'lib, uning nazariy-huquqiy mazmuni turli sohalar mutaxassisleri tomonidan turlicha izohlanadi.

Haqiqatan ham, "retsidiv" atamasi lotincha *recidivus* so'zidan olingan bo'lib, "takroran sodir etiluvchi" yoki "qayta yuzaga keluvchi" ma'nosini anglatadi [1]. Retsidiv jinoyat sodir etishning ijtimoiy xavfliroq shakli hisoblanadi. Jinoyat qonuni retsidivni shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin yana qasddan jinoyat sodir etishi sifatida tan oladi (JK 34-moddasi, birinchi qismi). Sudlangan shaxs tomonidan takroran jinoyat sodir etilishi uning jamiyat uchun yuqori darajadagi ijtimoiy xavfliligidan dalolat beradi. Bu holat qonunda inobatga olingan bo'lib, Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddalarida retsidivning muayyan turlari javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan [2]. Takroran jinoyat sodir etish mahkumning shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, uning tarbiyaviy-ta'limiy jarayonlarini tashkil etishda ham inobatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat kodeksida retsidiv jinoyat tushunchasining rasman belgilanishi va mazkur turdagi jinoyatlarning aniq tasniflanishi jinoyat huquqi uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1959-yili qabul qilingan Jinoyat kodeksi Umumiy qismida retsidiv jinoyat tushunchasi berilmagan bo'lib, O'zbekiston SSR ning 1961-yil 30-may Qonuni bilan ushbu kodeksga "Alohida xavfli retsidivist" nomli 23¹-moddasi kiritildi [3]. Ushbu modda 5 ta qismdan iboratdir.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilishicha, ilgari davlatga qarshi alohida xavfli jinoyati (54-m., 63-m.), banditizm (67-m.), axloq tuzatish – mehnat muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar (67- m, 1-q.), qasddan odam o'ldirish (80,81-m) qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (88-m.), nomusga tegish (94-m.), davlat yoki jamoat mulkini ko'p yoki juda ko'p miqdorda talon-taroj qilish (114-m. 3-q., 115-m. 3-q. 117- m., 3-q., 118-m. 3 -q., 119-m. 3-q., 119-1-m.) davlat yoki jamoat mulkini yoxud grajdanlarning shaxsiy mulkini egallab olish maqsadida bosqinchilik qilish (116 va 127-m.) uchun sudlangan hamda shu ko'rsatilgan jinoyatlarning biri

uchun birinchi marta sudlanganidan qat'ri nazar, yana shu jinoyatlardan birortasini sodir qilgan shaxs sud hukmi bilan alohida xavfli retdivist, deb topilishi mumkin [4].

Bundan tashqari, shaxsni alohida xavfli retdivist, deb topish to'g'risidagi qonunlarni qo'llash amaliyoti borasida va ashaddiy jinoyatchilikning oldini olish maqsadida, 1963-yil 3-iyulda SSSR Oliy Sudi Plenumi "Shaxsni alohida xavfli retdivist deb tanish bo'yicha sud praktikasi to'g'risida"gi 8-sonli, 1965-yil 29-dekabrda esa, "Sudlarning ashaddiy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni yo'qotish to'g'risida"gi 11-sonli va 1970-yil 18-martda "Sudlarning ashaddiy jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi faoliyati haqida"gi 2-sonli qarorlarini qabul qildi.

1959-yilgi Jinoyat kodeksida retdiv jinoyat tushunchasi berilmaganligi tufayli olimlar ushbu tushunchani turlicha talqin qilib keldilar.

1994-yilgi O'zbekiston Respublikasi JK 34-moddasida retdiv jinoyat uchta turga bo'lib tasniflandi: moddaning birinchi qismida retdiv jinoyatning umumiy jinoyat-huquqiy tushunchasi berildi. Unga ko'ra, "Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retdiv jinoyat deb topiladi".

Retsdiv jinoyat bir qancha jinoyatlarning eng xavfli shakli bo'lib, ilgari qasddan qilgan jinoyati uchun muayyan turdagi jazoga hukm qilinganidan keyin, shaxs tomonidan qasddan yangi jinoyat sodir qilganlikdan iboratdir. "Shaxsning ilgari qasddan qilgan jinoyati uchun sudlanib, sudlanganlik muddati o'tib ketmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etishi retdiv jinoyat deb topiladi" [5].

Biz retdiv jinoyatiga to'liq va aniq ta'rif berilishi zarur, deb hisoblaymiz. Bu, o'z navbatida, sud amaliyotida uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, shuningdek, retdiv jinoyat sodir etgan shaxsni takroran jinoyat sodir etgan shaxsdan farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va jinoyat huquqi nazariyasida retdiv jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va shaxsning sudlanganligi bilan bog'liq holda uni takror sodir etilgan jinoyatlardan ajratib ko'rsatish mumkin. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasi birinchi qismida retdiv jinoyatga to'liq ta'rif berilmagan. Shuning uchun, takror jinoyatlarni retdiv jinoyatdan aniq farqlash imkonini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasini quyidagicha tahrir qilishni taklif etamiz:

"Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, sudlanganlik muddati o'tib ketmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan turib, qasddan yana jinoyat sodir etishi retdiv jinoyat deb topiladi".

Bu borada xorijiy davlatlar tahlilini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ya'ni Latviya Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasida ham retdiv jinoyatga xuddi shunday ta'rif berilgan bo'lib [6], ushbu ta'rif ham retdiv jinoyat tushunchasini to'liq qamrab olgan.

Retsdiv jinoyat asosan uchta asosiy yo'nalishda o'rganiladi: a) jinoyat-huquqiy; b) kriminologik; v) penitentsiar (jinoyat-ijroiya huquqiy).

Retsdiv jinoyat tushunchasi mazkur sohalarda turlicha talqin etiladi. Jinoyat huquqida retdiv yuridik fakt sifatida qaralsa, kriminologiyada ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilinadi.

Retsdiv jinoyatning jinoyat-huquqiy belgilari quyidagilardan iborat: a) shaxsning avval qasddan jinoyat sodir etganligi; b) ushbu jinoyati uchun sudlanganligi; v) keyingi jinoyatning ham qasddan sodir etilganligi; g) keyingi jinoyatning avvalgi jinoyat uchun sudlanganidan keyin sodir etilganligi.

Agar mazkur belgilardan biri mavjud bo'lmasa, qilmish retdiv jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi.

Retsdiv jinoyat boshqa jinoyat shakllariga nisbatan xavfliroq hisoblanadi, chunki u shaxs tomonidan oldingi qasddan sodir etilgan jinoyat uchun qonuniy jazo choralari qo'llanilganiga qaramay, yana jinoyat sodir etilishida namoyon bo'ladi. Shaxsning ilgari sodir qilgan jinoyati uchun jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoiy jazo (majburlov chorasi) qo'llanilganligiga qaramay, shaxsning o'z muammolarini hal qilish uchun aynan jinoyat yo'lini tanlaganligidan dalolat beradi [7].

Bizningcha, JK 34, 59, 60- va boshqa bir qator moddalarning mazmunidan kelib chiqib quyidagilar mavjud bo‘lganida retsdiv jinoyat sodir etilgan, deb topilishi mumkin:

- qasddan qilingan jinoyat uchun xukm qilinganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- hukm qonuniy kuchga kirib, asosiy va qo‘shimcha jazolarni o‘tab bo‘lmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- jazoni o‘tab bo‘lganidan keyin sudlanganlik muddati o‘tib ketguncha yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- shartli hukm qilinib, sinov muddati tugamasdan qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilingan shaxsning jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etishi;
- jazo yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs yengilroq jazoni o‘tash muddati mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etishi;
- shaxsga nisbatan hukm chiqarilganidan keyin u o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalilib, JK 69-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan tuzalsa va qasddan yangi jinoyat sodir qilgan taqdirda;
- shaxsga nisbatan hukm chiqarilgan va amnistiya akti orqali jazodan ozod qilingan (agar amnistiya aktida jazodan ozod qilish bilan birga sudlanganligi ham olib tashlanmagan bo‘lsa) va JK 78-moddasida ko‘rsatilgan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- shaxs avf etish asosida jazodan ozod qilinib, avf etish bilan birga sudlanganligi ham olib tashlanmagan bo‘lsa JK 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etish;
- O‘zr JKning 70-moddasida shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish, 71-moddasida esa aybdorning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish nazarda tutilgan.

Retsdiv jinoyat uchun bu masala qanday hal etiladi. Bunda shaxs ana shu moddalar asosida jazodan ozod qilingan bo‘lsa 69 va 78-moddalar nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etilsa, qilmish retsdiv jinoyat deb hisoblanadimi? Bizning fikrimizcha, bunday holda ham shaxs sudlangan hisoblanadi va qilmish retsdiv jinoyat hisoblanadi. Chunki, qonunda sud tomonidan shaxsni jazodan ozod qilishning o‘zi nazarda tutilib, jazodan ozod qilish bilan birga sudlanganligini ham olib tashlash nazarda tutilmagan, sud sudlanganlikning olib tashlash masalasini faqat JK 79-moddasida belgilangan qoidalarga amal qilgan holdagina hal qiladi. Ana shu aytilganlarga ko‘ra, JK 70 va 71-moddalari asosida jazodan ozod qilingan shaxslar 78-moddada nazarda tutilgan muddatlar mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir qilgan taqdirda ham retsdiv jinoyat sodir qilingan deb topiladi [8].

Retsdiv jinoyat deb topish uchun sudlanganlik muddati davomida qasddan yangi jinoyat sodir etilganligi muhim hisoblanadi, ammo shaxsga qanday turdagi jazo tayinlangani bunda ahamiyat kasb etmaydi. Biroq, shaxsni o‘ta xavfli retsdivist deb topishda sud faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan holatlarni hisobga oladi.

Demak, sudlanganlik muddati shaxsga tayinlangan jazo turi bilan bog‘liq bo‘lsa, retsdiv jinoyatda esa Jinoyat kodeksining 43-moddasida nazarda tutilgan jazolardan biriga hukm qilingan shaxs tomonidan ushbu jazoni o‘tash vaqtida yoki jazoni o‘tab bo‘lganidan keyin Jinoyat kodeksining 78-moddasida belgilangan muddatlar mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etilishi asosiy mezon hisoblanadi.

Shuningdek, sodir etilgan jinoyatni retsdiv deb kvalifikatsiya qilishda jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ham ahamiyat kasb etmaydi. Jinoyat kodeksining 34-moddasiga muvofiq, retsdiv jinoyat deb topishda shaxsning yoshi – voyaga yetgan yoki yetmaganligi ham hisobga olinmaydi. Biroq, shaxsni o‘ta xavfli retsdivist deb topish uchun u 18 yoshga to‘lganidan keyin og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan bo‘lishi lozim.

Masalan, 2016-yil 4-iyun kuni taxminan soat 13.00 larda N. Mirzo Ulug‘bek tumani TTZ-4 dahasida joylashgan 2 uy yonida joylashgan “Otabek” do‘kon oldida bo‘la turib, sobiq turmush o‘rtog‘i K. bilan kelib chiqqan o‘zaro kelishmovchilik oqibatida, K.ni urib, tepib, unga tan jarohati yetkazgan. Natijada fuqaro K. Kibray tumani shifoxonasiga “2-barmoq suyagini boshchasi sinib

siljishi” tashxisi bilan murojaat qilgan.

Bundan tashqari, yana N. 2016-yil 7-iyul kuni taxminan soat 12:00 larda K.ni urib, tepib tan jaroxati yetkazgan. Natijada fuqaro K. TTZ kasalxonasiga “bosh miya yopiq jarohati, bosh miya chayqalishi” tashxisi bilan murojaat qilgan.

Sud sudlanuvchi N.ning harakatlari birinchi epizod bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi JK 105-moddasi 1-q. ya’ni qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish deb va ikkinchi epizod bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi JK 109-moddasi 2-q. bilan, ya’ni qasddan badanga sog‘liqning qisqa muddatga buzilishiga olib kelgan yengil tan jarohati yetkazish, deb to‘g‘ri kvalifikatsiya qilgan [9]. Ushbu misolda sud N.ga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlaganini va muqaddam sudlanganini ham e’tiborga olgan.

Retsidiv jinoyatni aniqlashda sudlanganlik masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, shaxs qachon sudlangan deb hisoblanishi muhim masala hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 77-moddasi 2-qismiga muvofiq, shaxs jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab sudlangan deb hisoblanadi.

Shu asosda, hukm e’lon qilinganidan hukm qonuniy kuchga kirgungacha bo‘lgan vaqtda sodir etilgan jinoyat retsidiv jinoyat sifatida baholanadimi yoki yo‘qmi, degan savol tug‘iladi. Bu borada yagona fikr mavjud bo‘lmasa-da, Jinoyat kodeksining 34 va 60-moddalari mazmuni tahlili asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin:

– Jinoyat kodeksining 60-moddasi 1-qismida, agar mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to‘la o‘tamay turib, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazo muddatiga avvalgi hukm yuzasidan o‘talmay qolgan jazo muddatini qo‘shishi belgilangan.

– Jinoyat kodeksining 34-moddasi 1-qismiga ko‘ra, qilmishni retsidiv jinoyat deb topish uchun hukm qonuniy kuchga kirgan kun emas, balki shaxs sudlanganidan keyin sodir etilgan bo‘lishi kerak.

Shu sababli, hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar retsidiv jinoyat sifatida baholanmaydi, balki ular jinoyatlar jamidan iborat yoki takroran jinoyat sodir etish sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, retsidiv va takroriylik bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, mustaqil huquqiy tushunchalardir. Takroriylik – shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik mavjud yoki mavjud emasligidan qat’i nazar, bir turdagi yoki o‘xshash jinoyatni takroran sodir etishidir. Sudlanganlik mavjud bo‘lgan taqdirda esa bu holat retsidiv jinoyat sifatida baholanadi.

M.X.Rustamboevning fikricha, “Retsidiv jinoyat shaxs ilgari sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin Maxsus qismning boshqa bir moddasida nazarda tutilgan jinoyatni qasddan sodir etishidir. Shu sababli aybning ehtiyotsizlik shaklidagi ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etish hollari, garchi shaxs ehtiyotsizlik orqasida sodir etgan jinoyati uchun ilgari javobgarlikka tortilgan bo‘lsa-da, retsidiv jinoyat deb topilishi mumkin emas. Mazkur qoida to‘la ravishda ehtiyotsizlik orqasida va qasddan jinoyat sodir etish hollariga ham tegishlidir” [10].

Bu tafovutlar muayyan darajada ob’ektiv xususiyatga ega, chunki “retsidiv” tushunchasi turli fanlar: jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-ijroiya (axloq tuzatish-mehnat) huquqi vakillari tomonidan qo‘llaniladi. Tegishli ravishda huquqiy (legal), kriminologik, penitentsiar retsidiv farqlanadi [11].

Retsidiv haqidagi jinoyat-huquqiy adabiyotlarni o‘rganish bu muammoning juda ko‘p masalalari bo‘yicha yagona fikr yo‘qligini ko‘rsatadi. Ana shunday bahsli masalalardan biri retsidivning tushunchasi va mohiyati haqidagi masaladir. Adabiyotlarda retsidivga berilgan ta’rifga asoslanib, retsidiv haqidagi fikrlarni uchta guruhga bo‘lish mumkin.

Ba’zi olimlar retsidiv deganda, bir shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyat sodir etilishini (shaxsning avval sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganligidan qat’i nazar), ya’ni haqiqatda mavjud retsidivni asos qilib olish kerak deb hisoblaydilar [12].

Ko‘pchilik olimlar va amaliyot xodimlari esa retsidiv tushunchasiga to‘xtalib, retsidiv deganda avval sudlangan va sudlanganligi bekor qilinmagan yoki olib tashlanmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishini tushunadilar, ya’ni legal retsidiv pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlaydilar [13].

Yana bir qator olimlar esa faqat avval sudlangan shaxs tomonidan emas, balki jazoni butunlay o‘tab chiqqan shaxs [14] yoki jazoni qisman o‘tagan shaxs [15] tomonidan ham jinoyat sodir etilsa, retsidiv bo‘ladi deyilar.

Ayrim xorijiy va MDH mamlakatlar JKda bir qancha jinoyatlar sodir etish, ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqar ekanmiz, jumladan, Yaponiya davlatining jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyatlarni sodir etish boshqa davlatlarning jinoyat qonunchiligidan keskin farq qilishiga guvoh bo‘ldik. Mazkur qonuniga ko‘ra, bir qancha jinoyatlar deganda, faqat jinoyatlar jami nazarda tutilgan, takroran jinoyat sodir etish, retsidiv jinoyatlarning normativ huquqiy asosi qonunda ko‘rsatilmagan. Bir shaxs tomonidan bir necha jinoyatlarni sodir etish, agar ularga nisbatan sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bo‘lmasa, jinoyatlar jami deb topiladi deyilgan [16].

Polsha jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi faqat takroran jinoyat sodir etish holatini o‘z ichiga oladi. Bu holat boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligida kam uchraydigan jihatdir. Polsha Jinoyat kodeksida (JK) qilmishlar bir qancha jinoyat sifatida turlarga ajratilmagan, ya‘ni:

Qilmish JKning bir moddasida yoki turli moddalarda nazarda tutilganligi ahamiyat kasb etmaydi.

Ilgari javobgarlikka tortilgandan so‘ng sodir etilgan jinoyat retsidiv emas, balki takroran jinoyat sifatida baholanadi.

Polsha jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyat deb topishning asosiy belgilari:

- birdan ortiq qilmishning sodir etilishi
- javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketmaganligi
- jinoiy tajovuzning bir yoki bir-biriga yaqin ob‘ektga qaratilganligi

Bu qonunchilikning yana bir o‘ziga xos xususiyati — takroran jinoyatlarni bir qancha qilmish sifatida huquqiy belgilarini aniq ajratmasdan, ular uchun jinoiy jazo tayinlash masalasiga urg‘u berilishidir.

Latviya jinoyat qonunchiligida esa bir qancha jinoyat tushunchasi ikki yoki undan ortiq jinoiy qilmishlar sodir etilishini o‘z ichiga oladi. Bu qonunchilikda bir qancha jinoyat deb topish quyidagilarni anglatadi:

- shaxsning ikki yoki bir qancha jinoyat sodir etishi;
- javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan bir qancha jinoyat belgilari mavjud bo‘lishi;
- bir jinoyat sodir etilishi, agar u yagona jinoiy qasd bilan qamrab olinmagan bo‘lsa.

Latviya jinoyat qonunchiligi MDH davlatlari qonunchiligidan farqli ravishda bir qancha jinoyat sodir etishning uch turini ajratadi [17]:

- 1) takroran jinoyat sodir etish; 2) jinoyatlarning jami va 3) retsidiv jinoyatni.

Retsidiv jinoyat deganda-shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin basharti shaxsning sudlanganligi olib tashlanmagan yoki tugatilmagan bo‘lsa qasddan yangi jinoyat sodir etishi belgilangan.

Latviya jinoyat qonunchiligida xavfli va o‘ta xavfli retsidiv jinoyatlarning asosi belgilanmagan, ya‘ni retsidiv jinoyatlar ijtimoiy xavfli xususiyatiga ko‘ra, differentsiatsiya qilinmagan.

Qozog‘iston JKda bir qancha jinoyatlarning uchta: 1) retsidiv jinoyat – (shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi).

2) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ikki marta ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi;

3) ilgari og‘ir jinoyat sodir etgan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi-xavfli retsidiv jinoyat sifatida belgilangan.

Quyidagi hollarda shaxs o‘ta xavfli retsidivist deb topilishi mumkin:

a) ilgari sodir etgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun kamida uch marta ozodlikdan mahrum kilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi;

b) og‘ir turdagi jinoyati uchun ikki marta ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning xudi shunday jinoyatni sodir etishi;

v) o‘ta og‘ir yoki og‘ir jinoyati uchun hukm qilingan shaxsning o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishi.

Shaxsni o'ta xavfli retsivist, deb topishda uning 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etgan jinoyati, uning sudlanganligi yoki sudlanganligining olib tashlanganligi ahamiyatga ega emas. Qozog'iston Respublikasi jinoyat qonunida ushbu Kodeksda ko'rsatilgan hollarda retsivist jinoyatlar uchun og'irroq jazo belgilashni ko'rsatiladi.

Ukraina JKda bir qancha jinoyat sodir etishning uch turi belgilangan. Ya'ni, "retsivist jinoyat- ilgari qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishidir".

Ukraina jinoyat qonunchiligida shaxsning sodir etgan jinoyati uchun necha marta hukm qilinganligini, qanday turdagi jinoyatlarni sodir etganlikni, ularning ijtimoiy xavfli xususiyatini hisobga olib, retsivist jinoyatlarni guruhlariga ajratilmagan, faqatgina jinoyat uchun sudlanganlikka e'tibor qaratgan xolos [18].

Tojikiston JKda bir qancha jinoyatlarni sodir etishning uch turi mustahkamlangan. Ushbu jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) qilmishlarning JK Maxsus qismining turli moddalarida yoki uning qismida nazarda tutilganligi; b) shaxsning sudlanmaganligi, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilinmaganligi; v) javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoyatlarni sodir etganligi [19].

Shaxsni o'ta xavfli retsivist deb topish masalasi hal etilayotgan paytda uning o'n sakkiz yoshgacha sodir etgan jinoyati, sudlanganligini to'gatilganligini, yoki olib tashlanganligini ahamiyati yo'q. Qonunda ko'rsatilgan hollarda retsivist jinoyatlar uchun qattiqroq jazo nazarda to'tilishi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonunchiligi bir qancha jinoyat sodir etishning uch turini nazarda tutgan. Bunda retsivist jinoyat-ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsivist jinoyat deb topiladi [20].

Ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bulgan qasddan jinoyat sodir etishi-xavfli retsivist jinoyat deb topiladi.

Ilgari qasddan sodir etgan o'rtacha og'ir yoki og'ir jinoyati uchun uch va undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi, yoxud ikki marta og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun sudlangan shaxsning qasddan og'ir jinoyat sodir etishi, yoki ilgari qasddan sodir etgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilingan shaxsning qasddan o'ta og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsivist jinoyat deb topiladi.

Shaxsni o'ta xavfli retsivist deb topishda uning o'n sakkiz yoshgacha jinoyat sodir etgan etmaganligi, sudlanganligini to'gatilganligi yoki olib tashlanganligi ahamiyatga ega emas. Retsivist jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat qonuni ular uchun og'irroq sanksiyalarni qo'llashni nazarda tutadi. Bir necha jinoyatlarni retsivist jinoyat deb topishning zaruriy sharti shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi va sudlanganidan so'ng qasddan yangi jinoyat sodir etishidir.

Bolgariya jinoyat qonunchiligida bir qancha jinoyatlar tushunchasi boshqa davlatlarnikidan farqli. Bu qonunchilikda bir qancha jinoyatlar:

- bir qilmish natijasida bir nechta jinoyatlar sodir etilishi
- shaxsning alohida ravishda bir nechta jinoyatlarni sodir etishi

Bu holatda sudning qonuniy kuchga kirgan qarori chiqarilgunga qadar sodir etilgan qilmishlar bir qancha jinoyatlar deb topiladi. Quyidagi holatlar ahamiyatga ega emas:

Qilmish jinoyat kodeksi maxsus qismining bir moddasida yoki turli moddalarida nazarda tutilganmi

Jinoiy tajovuz bir-biriga yaqin yoki boshqa ob'ektlarga qaratilganmi

Bolgariya jinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari:

- bir qancha jinoyatlar - bu shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoiy oqibat keltirib chiqargan bir harakat yoki harakatsizligi yoki alohida bir necha jinoyat sodir etishi.

- qilmishlarni takroran sodir etish, jinoyatlar jami va retsivist jinoyatlarga ajratish amalda mavjud emas, biroq sudlanganlikning huquqiy oqibati og'irroq jazo tayinlashga sabab bo'lishi mumkin.

– retsidiv jinoyat – shaxs ilgari qasddan jinoyat sodir etib, hukm qilinganidan keyin yana qasddan yangi jinoyat sodir etishi.

Xavfli retsidiv jinoyat tushunchasi Bolgariya jinoyat qonunchiligida aniq belgilab qo‘yilgan. Bu holat quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

– ilgari qasddan jinoyat sodir etib, ikki marta ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning yana ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jinoyat sodir etishi

– ilgari og‘ir jinoyat sodir etib, hukm qilingan shaxsning yana qasddan og‘ir jinoyat sodir etishi

Bolgariya jinoyat qonunchiligining o‘ziga xos jihati shundaki, qilmish retsidiv jinoyat deb topilishi uchun maxsus huquqiy normalar belgilanmagan, lekin jazo tayinlashda sud bu holatni inobatga oladi.

Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan og‘ir yoki uncha og‘ir bulmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin bulgan qasddan yangi jinoyat sodir etishi, ilgari qasddan sodir etgan ikkita o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilingan shaxsning qasddan og‘ir jinoyat sodir etishi, ilgari qasddan sodir etgan og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm kilingan shaxsning qasddan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishi o‘ta xavfli retsidiv deb topiladi. Shaxsni o‘ta xavfli retsidivist deb topishda uning o‘n sakkiz yoshgacha jinoyat sodir etganligi, sudlanganlikning olib tashlanganligi yoki tugatilganligi ahamiyatga ega emas. Ushbu jinoyatning o‘ziga xos xususiyati shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan so‘ng qasddan yangi jinoyat sodir etishi hisoblanadi. Shaxsning retsidiv jinoyatlarni sodir etishi jinoyat qonuni og‘irroq jazo bilan qamrab oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik, xususan retsidiv jinoyatchilik masalasini hal etish va bu borada ayrim MDH davlatlar Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlar retsidiv jinoyatchiligi, ularning sudlanganlik masalasini qiyosiy tahlil etish va bu borada tegishli taklif va tavsiyalar berish muhim ahamiyatga egadir.

Voyaga yetmaganlar retsidivi va ularning sudlanganligiga oid amaldagi jinoyat qonun normalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, sudlanganlik voyaga yetmaganlar retsidiv jinoyatchiligi vujudga kelishiga ta‘sir qiluvchi jinoyat-huquqiy institut bo‘lib hisoblanadi. Chunki, aynan sudlanganlik holatining mavjudligi shaxsning retsidivlik holatini kelib chiqishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi amaldagi JK 78-moddasida sudlanganlik holatining umumiy muddatlari qayd etilgan bo‘lib, mazkur normada mahkumga tayinlangan jazo turi va miqdoridan kelib chiqqan holda sudlanganlikning tugallanish muddatlari belgilangan, shu bilan birgalikda shaxsning jinoyat sodir etish vaqtida voyaga yetgan yoki yetmaganligi bilan bog‘liq holatlar ushbu muddatlarning qo‘llanilishiga ta‘sir qilish yoxud ta‘sir qilmaslik masalasi mazkur qonunning tegishli normalarida o‘z ifodasini topmagan.

Shuningdek, ayrim MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Gruziya, Qozog‘iston Respublikalari jinoyat qonunchiliklarida voyaga yetmaganlar retsidivi va ularga nisbatan sudlanganlik holatini belgilashning alohida tartibi joriy etilgan. Rossiya Federatsiyasi amaldagi Jinoyat kodeksining 95-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlanganlik holatining tugallanishini alohida tartibi belgilangan bo‘lib, ularning muddati quyidagicha:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘talganidan keyin bir yil o‘tgach;

b) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘talganidan keyin uch yil o‘tgach;

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan yengilroq jazo turlari bilan sudlanganlarga nisbatan – ularga belgilangan jazo ijro etilganidan yoki o‘tab bo‘linganidan keyin bir yil o‘tgach sudlanganlik muddatlari tugallanadi.

Qolgan barcha holatlarda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan RF JKning 86-moddasida ko‘rsatilgan sudlanganlik muddatlari umumiy asosda qo‘llaniladi [21].

Qozog‘iston Respublikasi JKda ham voyaga yetmaganlarga sudlanganlik muddatlarini qo‘llashning o‘ziga xos tartibi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra:

a) ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan yengilroq jazo turlari bilan sudlanganlarga nisbatan – jazo ijro etilganidan yoki o'tab bo'linganidan keyin to'rt oy o'tgach;

b) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talغانidan keyin bir yil o'tgach;

v) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talغانidan keyin uch yil o'tgach sudlanganlik muddatlari tugallangan hisoblanadi [22].

Mazkur davlatlarning voyaga yetmaganlar retsivivi va sudlanganlikka oid jinoyat qonuni normalarini tahlil qilish jinoyat sodir etgan shaxsга uning sudlanganlik muddatlarini qo'llash masalasi jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tasniflanishiga, ya'ni, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat ekanligiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu holat esa o'z navbatida bir xil tasnifga kiruvchi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, alohida xususiyatlar, xususan, yengillashtiruvchi holatlar (aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish; yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish, og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul holda jinoyat sodir etish va hk.) yoki aksincha, og'irlashtiruvchi holatlarning (ko'p yoki juda ko'p miqdorda; o'ta shafqatsizlik bilan; takroran yoki xavfli retsivist tomonidan; bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab jinoyat sodir etish va hk. (basharti, bu belgilar bir moddaning aynan bir qismida ko'rsatilgan yoxud moddada alohida ko'rsatilmagan holatlarda)) mavjudligidan, shuningdek, ularga nisbatan qo'llanilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatidan qat'iy nazar bir xil sudlanganlik muddatlarini keltirib chiqaradi. Ushbu holatda qonun chiqaruvchi sudlanganlik muddatlarini qo'llash uchun qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini asos qilib olganligini, shuningdek, jinoyat ishida jazoni yengillashtiruvchi yoxud og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi sudlanganlik holatining tugallanish muddatlariga ta'sir etmasligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JKda esa, shaxsning sudlanganlik muddati tayinlangan jazoning turi va muddatidan kelib chiqib belgilanadi. Misol uchun agar shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan taqdirda, uning sudlanganlik muddati sodir etgan jinoyatining og'irlik darajasiga qarab emas, balki, JKning 55, 56 hamda 57-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga tayangan holda tayinlangan jazo turi va miqdoriga uzviy bog'liqdir, chunki, ushbu ko'rsatilgan holatlarning sud tomonidan inobatga olinishi shaxsга nisbatan jazo turi va miqdori, shuningdek, sudlanganlik muddatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Shu bilan birga, qonunchilik normalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar o'rtasida retsiv jinoyatchilikning kelib chiqishiga qarshi kurash va uning oldini olish bo'yicha umumiy va maxsus vakolatli sub'ektlar faoliyati hamda mazkur faoliyatni tartibga soluvchi qonun normalaridagi mavjud muammolar, sudlanganlik holatini davomiyligiga ta'sir qiluvchi jazo turlari va miqdori voyaga yetmaganlarga nisbatan yengillashtirilgan ko'rinishga ega bo'lsada, ularga nisbatan faqat umumiy jazo muddatlaridan yengilroq jazo tayinlash bilan cheklanilganligi, sudlanganlik muddatlarini qo'llashning alohida tartibi hanuzgacha belgilanmaganligi, shuningdek, ayrim MDH mamlakatlarida voyaga yetmaganlar retsivivi va ularga nisbatan sudlanganlik institutini qo'llash bilan bog'liq normalarni tahlil qilish jinoyat qonunchiligimizda retsiv va sudlanganlik bilan bog'liq qonun normalarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar retsivivi va ularga nisbatan sudlanganlik muddatlarini qo'llashning alohida tartibini muayyan huquqiy normada aks ettirishni taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlarga nisbatan sudlanganlik muddatlarini qo'shish va voyaga yetmaganlar retsiviviga taalluqli alohida normalarni O'zbekiston Respublikasi JK Umumiy qismiga kiritish lozim.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bunday normaning jinoyat qonunchiligida qayd etilishi o'z navbatida jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxs hulq-atvorining ijobiy tomonga o'zgarishiga; ahloqan tuzalishi orqali voyaga yetmagan shaxsda mavjud salbiy illatlarning yo'qolishiga va jamiyatda tezroq o'z o'rnini topishiga; "sudlanganlik" tamg'asini ko'tarib yurishdan xalos bo'lishiga; professional jinoyatchilikning poydevori bo'lgan voyaga yetmaganlar retsiv jinoyatchiligini oldini olishga; eng asosiysi, voyaga yetmaganlar o'rtasida retsiv jinoyatchilikning sifat va miqdor jihatdan

keskin kamayishida muhim rol o'ynaydi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Умидуллаев Ш. Рецидив жиноят тушунчаси ва рецидив жиноят учун жавобгарликнинг хусусиятлари. - Т. Янги аср авлоди. 2001.- Б.9. (Umidullayev Sh. The Concept of Recidivist Crime and the Characteristics of Liability for Recidivist Crime. - Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2001. - p. 9.)
2. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик / А.С.Якубов, Р.Кабулов ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 261. (Criminal Law. General Part: Textbook / A.S. Yakubov, R. Kabulov, et al. – Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2009. – p. 261.)
3. Ўзбекистон ССР нинг Жиноят кодекси (1962 йил 1 мартгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан). – Ташкент: Ўздавнашр, 1962. – Б.–13. (Criminal Code of the Uzbek SSR (with amendments and additions as of March 1, 1962). – Tashkent: UzDavNashr, 1962. – p. 13.)
4. Ўзбекистон ССР нинг Жиноят кодекси (1962 йил 1 мартгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан). – Тошкент: Ўздавнашр, 1962. – Б. 13–14. (Criminal Code of the Uzbek SSR (with amendments and additions as of March 1, 1962). – Tashkent: UzDavNashr, 1962. – pp. 13–14.)
5. Усмоналиев М., Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. —Т.; Янги аср авлоди. 2010. – Б. 327. (Usmonaliyev M., Bakunov P. Criminal Law. General Part. — Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2010. – p. 327.)
6. Уголовный кодекс Латвийской Республики / науч. ред. и вступ. статья канд. юрид. наук А. И. Лукошева и канд. юрид. наук Э. А. Саркисова. Перевод с латышского канд. юрид. наук А. И. Лукошева. – СПб. : Юридический центр Пресс, 2001 – 313 с. E-mail: izdat@hotmail.com E-mail: izdatspb@mail.ru [http\ www.urcenter.newmail.ru](http://www.urcenter.newmail.ru), 2-г, 64-67 с. (Criminal Code of the Republic of Latvia / Scientific ed. and foreword by Candidate of Legal Sciences A.I. Lukosheva and Candidate of Legal Sciences E.A. Sarkisova. Translated from Latvian by Candidate of Legal Sciences A.I. Lukosheva. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2001. – 313 p. E-mail: izdat@hotmail.com, izdatspb@mail.ru, <http://www.urcenter.newmail.ru>, pp. 2-g, 64-67.)
7. Усмоналиев М., Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. —Т.; Янги аср авлоди. 2010. –Б. 329. (Usmonaliyev M., Bakunov P. Criminal Law. General Part. — Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2010. – p. 329.)
8. Умидуллаев Ш. Рецидив жиноят тушунчаси ва рецидив жиноят учун жавобгарликнинг хусусиятлари. - Т. Янги аср авлоди. 2001.- Б.24. (Umidullayev Sh. The Concept of Recidivist Crime and the Characteristics of Liability for Recidivist Crime. – Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2001. – p. 24.)
9. Жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар, Мирзо Улуғбек туман судининг №1-462\06-сонли жиноят иши. (Criminal Case No. 1-462/06 of the Mirzo Ulugbek District Court of Criminal Cases of Tashkent City.)
10. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. Т. 2010. Т. 2. 173 бет. (Rustamboev M.Kh. Course on Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2010. – Vol. 2. – p. 173.)
11. Карпец И.И. Проблема преступности. – М., 1969. – с.113-115.; Кузнецова Н.Ф. Преступление и преступность. – М., 1969. –С.179.; Рецидивная преступность: понятие и криминологическая характеристика / Ниедре А.М. и др. – Рига, 1993. – с.10-11. (Karpets I.I. The Problem of Crime. – Moscow, 1969. – pp. 113-115.; Kuznetsova N.F. Crime and Criminality. – Moscow, 1969. – p. 179.; Recidivist Criminality: Concept and Criminological Characteristics / Niedre A.M. et al. – Riga, 1993. – pp. 10-11.)
12. Никифоров Б.С. О рецидиве и судимость//Советское государство и право. -1957. -№5. –С. 11; Степичев С. Нужен ли институт судимости?//Социалистическая законность. -1965. -№9. – С. 16. (Nikiforov B.S. On Recidivism and Conviction // Soviet State and Law. - 1957. - No. 5. – p. 11.; Stepichev S. Is the Institution of Conviction Necessary? // Socialist Legality. - 1965. - No. 9. – p. 16.)

13. Кудрявцев В.Н. Теоретические основы квалификации преступлений. – М., 1963. – С. 314; Яковлев А.М. Борьба с рецидивной преступностью =. – М., 1993. – С. 34; Кунашев А.Х. Уголовная ответственность за рецидив преступлений по уголовному праву. Автореф.канд.дисс. – М., 1970. – С. 10. (Kudryavtsev V.N. Theoretical Foundations of Crime Qualification. – Moscow, 1963. – p. 314.; Yakovlev A.M. Combating Recidivist Crime. – Moscow, 1993. – p. 34.; Kunashev A.Kh. Criminal Liability for Recidivism in Criminal Law. Abstract of Candidate Dissertation. – Moscow, 1970. – p. 10.)
14. Шаргородский М.Д. Наказание по советскому уголовному праву. – М., 1958. – С. 43. (Shargorodsky M.D. Punishment under Soviet Criminal Law. – Moscow, 1958. – p. 43.)
15. Галиакбаров Р., Ефимов М., Фролов Е. Множественность преступных деяний, как институт советского уголовного права//Советская юстиция. -1967. -№ 2. –С.2. и др. (Galiakbarov R., Efimov M., Frolov E. Multiplicity of Criminal Acts as an Institution of Soviet Criminal Law // Soviet Justice. - 1967. - No. 2. – p. 2, et al.)
16. Уголовный кодекс Японии. Науч. редактирование и предисловие докт. юрид. наук, проф. А. И. Коробеева. – СПб. : Юридический центр Пресс, 2002. – 54 с. E-маэл: izdat@hotmail.com E-маэл: izdatspb@mail.ru. (Criminal Code of Japan. Scientific editing and foreword by Doctor of Legal Sciences, Professor A.I. Korobeev. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2002. – 54 p. E-mail: izdat@hotmail.com, izdatspb@mail.ru.)
17. Уголовный кодекс Латвийской Республики / науч. ред. и вступ. статья канд. юрид. наук А. И. Лукошева и канд. юрид. наук Э. А. Саркисова. Перевод с латышского канд. юрид. наук А. И. Лукошева. – СПб. : Юридический центр Пресс, 2001 – 313 с. E-маэл: izdat@hotmail.com E-маэл: izdatspb@mail.ru [http\ www.urcenter.newmail.ru](http://www.urcenter.newmail.ru), 2-г, 64-67 с. (Criminal Code of the Republic of Latvia / Scientific ed. and foreword by Candidate of Legal Sciences A.I. Lukosheva and Candidate of Legal Sciences E.A. Sarkisova. Translated from Latvian by Candidate of Legal Sciences A.I. Lukosheva. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2001. – 313 p. E-mail: izdat@hotmail.com, izdatspb@mail.ru, <http://www.urcenter.newmail.ru>, pp. 2-g, 64-67.)
18. Уголовный кодекс Украины/ Научное редактирование и предисловие докт. юрид. наук, проф. В.Я. Тация и докт. юрид. наук, проф. В.В. Сташиса; перевод с украинского В.Ю. Гличенко. –СПб.: Издательство «Юридический центр Пресс», 2001. – 393 с. (Criminal Code of Ukraine. Scientific editing and foreword by Doctor of Legal Sciences, Professor V.Ya. Tatsiy and Doctor of Legal Sciences, Professor V.V. Stashis; translated from Ukrainian by V.Yu. Glichenko. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2001. – 393 p.)
19. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. Предисловие А, В, Федорова. – СПб. : Юридический центр Пресс, 2001. 34– 39 с. E-маэл: izdat@hotmail.com E-маэл: izdatspb@mail.ru. (Criminal Code of the Republic of Tajikistan. Foreword by A.V. Fedorov. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2001. – pp. 34–39. E-mail: izdat@hotmail.com, izdatspb@mail.ru.)
20. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации // Ю.В. Грачева, Л.Д. Ермакова [и др]; отв. Ред. А.И. Рарог. – 4-е изд., перераб. И доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. С. – 167. (Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation // Y.V. Gracheva, L.D. Ermakova [et al.]; ed. by A.I. Rarog. – 4th ed., revised and expanded. – Moscow: ТК Velbi, Prospect Publishing, 2006. – p. 167.)
21. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации // Ю.В. Грачева, Л.Д. Ермакова [и др]; отв. Ред. А.И. Рарог. – 4-е изд., перераб. И доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. С. – 167. (Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation // Y.V. Gracheva, L.D. Ermakova [et al.]; ed. by A.I. Rarog. – 4th ed., revised and expanded. – Moscow: ТК Velbi, Prospect Publishing, 2006. – p. 167.)
22. Уголовный кодекс Республики Казахстан // науч ред. И предисл. Д.ю.н., И.И. Рогова. СПб: Юридический центр Пресс, 2001. – 446 с. (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan // Scientific ed. and foreword by Doctor of Legal Sciences I.I. Rogov. – St. Petersburg: Legal Center Press, 2001. – 446 p.)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 2/3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000